Abstract. *The article analyzes the phenomenon of the inclination to blame (accusative bias) inherent in investigator activity during criminal investigation based on a comprehensive – normative, cognitive-psychological, and institutional – approach. A comparative study of modern international (“tunnel vision” and “confirmation bias” theories), European, post-Soviet, and national doctrinal sources reveals the cognitive roots of bias. The purpose of the article is to comprehensively analyze the cognitive, comparative-legal, and institutional aspects of propensity to blame, develop a system of procedural mechanisms to eliminate it, and substantiate the possibilities of their application as a scientific innovation. The study employed normative-dogmatic, comparative-legal, systemic-structural, and sociological (survey) methods. A system of seven procedural mechanisms for eliminating inclination to blame and a methodology for its empirical justification are proposed.*

Keywords: *confirmatory bias, cognitive distortion, tunnel vision, confirmation bias, principle of objectivity, analysis of alternative hypotheses, proportional inadmissibility, procedural safeguards*

Kirish

Tergovchining jinoyat ishi bo'yicha holatlarini har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirish majburiyati jinoyat-protsessual huquqning fundamental talablaridan biri hamda odil sudlovga erishishning zaruriy shartidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari, jinoyat protsessini liberallashtirish va inson huquqlarini ta'minlash yo'nalishi (yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 26–30-moddalari) ushbu majburiyatning real ijrosiga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish davlat dasturi ham sud-huquq tizimida inson huquqlari kafolatlarini kuchaytirish vazifalarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi (President of the Republic of Uzbekistan, 2026).

Shunga qaramay, huquqni qo'llash amaliyoti tergovda ayblovga moyillik (*обвинительный уклон*) hodisasi ustuvor bo'lib qolayotganini ko'rsatadi: oqlov hukmlarining nisbatan kamligi, ishlarni qo'shimcha tekshirishga qaytarish hamda asossiz jinoiy ta'qib va keyingi rehabilitatsiya holatlari bunga dalil bo'la oladi. Mazkur hodisa nafaqat normativ, balki tergovchining qaror qabul qilish jarayoniga xos kognitiv va institutsional o'lchovga ham ega.

Muammoning o'rganilganlik darajasi ikki yondashuvga bo'linadi. An'anaviy normativ-dog-

matik yondashuv (milliy va postsovet doktrinasini) ayblovga moyillikni, asosan, qonunchilikdagi bo'shliq yoki tergovchining subyektiv nuqsoni sifatida talqin qiladi. Zamonaviy kognitiv-psixologik yondashuv (G'arb doktrinasini) esa uni inson tafakkuriga xos tizimli buzilish sifatida izohlaydi. Milliy doktrinada ushbu kognitiv-institutsional o'lchov deyarli o'rganilmagan; aynan shu ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

Maqolaning maqsadi – ayblovga moyillikning kognitiv, qiyosiy-huquqiy va institutsional jihatlarini kompleks tahlil qilib, uni bartaraf etuvchi protsessual mexanizmlar tizimini ishlab chiqish hamda ularni ilmiy yangilik sifatida qo'llash imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Tadqiqotda normativ-dogmatik, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tarkibiy va sotsiologik (so'rov) usullari qo'llangan.

Asosiy qism

1. Ayblovga moyillik: tushuncha, tasnifi va namoyon bo'lish shakllari

Ayblovga moyillik deganda tergovchining gumon qiluvchi yoki ayblanuvchining aybdorligini tasdiqlovchi dalillarni ustuvor deb bilishi va aksincha, oqlovchi dalillarni kamsitib baholashi yoki e'tibordan chetda qoldirishi tushuniladi. Ushbu hodisa tergovning barcha bosqichlarida – versiya shakllantirish, dalillarni to'plash, mustahkamlash va baholashda – tizimli ravishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot doirasida ayblovga moyillikning uch turi ajratiladi: kognitiv moyillik (inson tafakkuriga xos “tonnel ko’rish” – *tunnel vision* va “tasdiqlash moyilligi” – *confirmation bias*); institutsional moyillik (statistik ko’rsatkichlar bosimi, idoraviy va prokuror iyerarxiyasi); normativ-strukturaviy moyillik (tergovchining qonun bo’yicha “ayblov tarafi”ga mansub etilishi). Ushbu uchlik ayblovga moyillikning yagona omildan emas, balki psixologik, institutsional va huquqiy omillarning o’zaro ta’siridan kelib chiqishini ko’rsatadi.

Ayblovga moyillikning amaliy namoyon bo’lish shakllari quyidagilardan iborat: “gumonlanuvchi shaxsga yo’naltirilgan tergov” (*suspect-driven investigation*), ya’ni versiyaning erta va subyektiv tarzda tanlanishi; “asimetrik skeptitsizm”, ya’ni o’z taxminini tasdiqlovchi ma’lumotni tanqidsiz qabul qilish va zid ma’lumotni haddan tashqari tanqidiy baholash; dastlabki tergov jarayonida jinoyatni og’irroq modda bo’yicha kvalifikatsiya qilish; ehtiyot chorasi sifatida qamoqni afzal ko’rish; oqlovchi versiya bo’yicha tergov harakatlarini o’tkazmaslik (Lidén, 2023). Ushbu shakllar tergovda dalil bazasining bir tomonlama shakllanishiga olib keladi.

2. Ayblovga moyillikning kognitiv-psixologik ildizlari

Zamonaviy tadqiqotlar ayblovga moyillikni ikki o’zaro bog’liq kognitiv hodisa orqali izohlaydi. “Tonnel ko’rish” (*tunnel vision*) – jinoyat adolati tizimi ishtirokchisining dalillarni tanlab filtrlab, ayblashga qaratilgan yagona versiyaga “qulflanishi”. E. Elaad (2022) Isroil politsiya tergovchilari ustida o’tkazgan eksperimentida bu effekt tergovchilarda oddiy fuqarolarga nisbatan ancha kuchli ekanini aniqladi: ayblovchi va oqlovchi ma’lumot teng taqdim etilganda ham tergovchilar gumon qilinuvchining aybdorligiga ko’proq ishonch bildirgan.

“Tasdiqlash moyilligi” (*confirmation bias*) – shaxsning o’z dastlabki taxminini tasdiqlovchi ma’lumotni, uning haqqoniyligidan qat’i nazar, afzal ko’rishi. M. Liden ushbu hodisa dalil izlash, saqlash va baholashning barcha bosqichlarida ta’sir ko’rsatishini hamda “sudyaviy istisnolik” (obyektiv bo’lishi kerak bo’lgan subyektlar moyillikdan xoli, degan tasavvur) asossiz ekanini ko’rsatadi (Lidén, 2023). Mazkur moyillik “e’tiqodning qat’iylashuvi” (*belief*

perseverance) bilan kuchayadi: dastlab shakllangan pozitsiya keyingi ma’lumotga qaramay saqlanib qoladi.

Ayblovga moyillikning kognitiv tabiati empirik tarzda ko’p marta tasdiqlangan. B. Shyunemann va V. Bandilla o’tkazgan klassik tajribada bir xil ish materiallari berilganda, ishdan oldin ko’proq ayblovchi ma’lumot olgan sudyalalar guruhida 82 foiz holatda, kamrog’ini olgan guruhda esa faqat 53 foiz holatda ayblov hukmi chiqarilgan (Schünemann & Bandilla, 1989). D. Rossmo va J. Pollok 50 ta nohaq hukmni tahlil qilib, *confirmation bias* ularning deyarli barchasida, jumladan, mashhur “Central Park Five” ishida, asosiy tizimli omil bo’lganini aniqlagan (Rossmo & Pollock, 2019). E. Rassin va hamkasblarining “Dalilni topaylik” (*Let’s find the evidence*) eksperimenti (Rassin et al., 2010) qo’shimcha tergov harakatlarini tanlash ko’pincha gumon qilinuvchining aybdorligiga berilgan dastlabki baho bilan boshqarilishini tasdiqlagan. T. Zingelsteyn (Singelstein 2016) esa tasdiqlash moyilligini politsiya tergov jarayonidagi tizimli kognitiv buzilish sifatida tahlil qilgan.

Kognitiv fan ushbu moyillikni kamaytirish (*debiasing*) vositalarini ham ishlab chiqqan. “Ra-qobatlashuvchi gipotezalarni tahlil qilish” (*analysis of competing hypotheses, ACH*) usuli, ya’ni bir vaqtning o’zida bir nechta muqobil versiyani tizimli tekshirish, E. Maegerman va hamkasblari (Maegherman et al., 2021) tomonidan huquqiy qaror qabul qilishda sinovdan o’tkazilgan; R. Sallet va J. Terpstra (2014) esa “tanqidiy ko’rib chiqish” (*critical review*) mexanizmi “tonnel ko’rish”ning oldini olishda qanday samara berishini baholagan. Mazkur tadqiqotlar ayblovga moyillikka qarshi kurashishning strukturaviy, ya’ni tergovchining qaror jarayonini cheklovchi mexanizmlar orqali samarali bo’lishini ko’rsatadi.

Shunday qilib, ayblovga moyillik tergovchining axloqiy nuqsoni emas, balki inson tafakkuridagi tabiiy kognitiv xususiyat bilan institutsional muhit bosimi o’rtasidagi o’zaro ta’sir natijasidir; shu bois unga qarshi samarali vosita psixologik tarbiya emas, balki protsessual dizayn masalasi-dir.

3. Ayblovga moyillikning qiyosiy-huquqiy tahlili

Ayblovga moyillikka qarshi huquqiy yechimlar turli tizimlarda uchta asosiy model orqali ifo-

dalanadi. Kontinental modelda tergovni amalga oshiruvchi subyektning obyektivlik majburiyati ustuvordir: Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksining 160-paragrafi 2-bandi prokurorni ayblov va oqlov holatlarini teng aniqlashga, Fransiya JPKning 81-moddasi esa tergov sudyasini *à charge et à décharge* (ayblovchi va oqlovchi) dalillarni to'plashga majbur etadi. Bu – moyillikka qarshi subyektning o'z ichki majburiyatiga asoslangan yechim.

Anglo-sakson modelda moyillikka qarshi ikki tashqi mexanizm ustuvor: birinchisi “Brady” doktrinasini (ayblov tarafi himoyaga barcha oqlovchi dalillarni oshkor qilishi shart); ikkinchisi dalillarni istisno qilish qoidasi (*exclusionary rule*) va “zaharlangan daraxt mevasi” (*fruit of the poisonous tree*) doktrinasini, unga ko'ra qonunbuzarlik natijasida olingan dalil sud tomonidan rad etiladi. Ushbu model moyillikning oqibatini protsessual sanksiya orqali neytrallashtiradi.

Postsovet modelida muammo hali hal etilmagan va faol muhokama qilinmoqda. Rus olimasi T. Ryabinina (2010) tergovchi mustaqilligining paradoksal tabiatiga e'tibor qaratadi: “ayblov tarafi”ga mansub tergovchi na prokurordan, na tergov organi rahbaridan mustaqil bo'la oladi; shu bois u tergovchini ayblov funksiyasidan ozod etib, obyektiv tadqiqot subyekti sifatida sud hokimiyatiga yaqinlashtirishni taklif qiladi. Qozog'iston qonunchiligi tizimli yechim taklif qiladi: 2015-yildan kuchga kirgan JPK sud, prokuror va tergovchini ishni har tomonlama, to'liq va obyektiv tekshirishga majbur etadi hamda sudga dastlabki tergov kamchiliklarini o'z tashabbusi bilan to'ldirish huquqini bermaydi, bu esa ayblash va hal etish funksiyalarini aniq ajratadi (Republic of Kazakhstan, 2014). Qozog'istonlik tadqiqotchi T. Bazarbayeva sudgacha bo'lgan bosqichda tortishuv va taraflarning teng huquqliligi prinsipini amalga oshirish muammolarini tahlil qilib, dastlabki tergovda tortishuv elementlarini kuchaytirish zaruratini asoslaydi (Bazarbaeva, 2022). Ukraina va Moldovada esa tergov sudyasi instituti orqali sud nazorati kuchaytirilgan.

Qiyosiy tahlil obyektivlik majburiyati (kontinental model), sud nazorati (postsovet va anglo-sakson an'ana) hamda protsessual sanksiya (anglo-sakson model) uyg'unligida uchta modelni

birlashtiruvchi yondashuv eng samarali ekanini ko'rsatadi. Ushbu uyg'unlik O'zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksini takomillashtirishning metodologik asosi bo'la oladi.

4. O'zbekiston milliy doktrinasini va institutsional omillar

Ayblovgacha moyillik muammosi O'zbekiston milliy doktrinasida ham o'z aksini topgan. Y. Rahimov (2000) so'roq qilish va ko'rsatuvlarga baho berishning protsessual-psixologik muammolarini tadqiq etib, tergovchining dalilni baholash jarayonidagi psixologik omillarga e'tibor qaratgan; bu yondashuv mazkur maqoladagi kognitiv tahlil bilan uzviy bog'lanadi. G. To'laganova (2006) dastlabki tergovda tortishuv elementlarini kuchaytirish zarurligini asoslaydi. M. Jamborov sudgacha bo'lgan bosqichda tergovchi, surishtiruvchi va prokuror nafaqat ayblov vazifasini, balki oqlov hamda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni ham to'liq aniqlashi shartligini ta'kidlaydi (Zhamborov, 2013). B. Po'latov (2003) prokurorning jinoyat protsessidagi nazorat funksiyasini, S. Mamadiyev (2009) esa tergovchi va prokuror qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish institutini tadqiq etgan. Shunday qilib, milliy doktrina muammoning ham protsessual, ham psixologik jihatlarini e'tirof etadi, ammo ularni kognitiv fan yutuqlari bilan bog'lovchi kompleks tadqiqot hali yaratilmagan.

Ayblovgacha moyillikning O'zbekistondagi miqyosi rasmiy sud statistikasida yaqqol namoyon bo'ladi. 2025-yilda sudlar 79 554 nafar shaxsga nisbatan 63 177 ta jinoyat ishini ko'rib chiqqan, shundan atigi 422 nafar shaxs oqlangan va rehabilitatsiya qilingan; bu ko'rsatkich sudlanganlar (63 340 nafar) soniga nisbatan 0,7 foizdan kamni tashkil etadi. O'sha yili sudlar 15 992 nafar shaxsga nisbatan dastlabki tergov organlari tomonidan asossiz qo'yilgan ayblov moddalarini ayblovdan chiqargan yoki qayta malakalagan, bu raqam tergovda ayblovgacha moyillikning tizimli xarakterini bevosita tasdiqlaydi. Shuningdek, sudlar tomonidan 45 323 ta xususiy ajrim chiqarilgan, bu esa tergov kamchiliklarini institutsional tahlil qilish uchun boy empirik asos beradi (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2026).

Ayblovgacha moyillik tushunchasi milliy doktrinada ham allaqachon qo'llanilgan: S. Mamadiyev (2009) prokuratura organlari ayrim mansabdor

shaxslarining “ayblovga moyilligi va noxolisligi” jinoyat-protsessual qonunchilik buzilishining asosiy sabablaridan biri ekanini ta’kidlagan. Bu mazkur tadqiqotda ilgari surilayotgan yonda-shuvning milliy doktrinal ildizga ega ekanini ko’rsatadi va uni kognitiv fan yutuqlari bilan rivojlantirish imkonini beradi.

Kognitiv moyillik O’zbekiston sharoitida institutsional omillar bilan kuchayadi. Tergovchi faoliyatini baholashning statistik mezonlari (qo’zg’atilgan va sudga yuborilgan ishlar soni) hamda oqlov hukmining “salbiy ko’rsatkich” sifatida qaralishi tergovchini ayblov versiyasini mustahkamlashga obyektiv ravishda rag’batlantiradi. Bunga prokurorning protsessual rahbarligi va de-fakto iyerarxiya ta’siri qo’shilsa, oqlovchining versiyani xolis tekshirish imkoniyati torayib boradi.

Mavjud huquqiy tartibda tergovchining obyektivlik majburiyatini buzishi uchun aniq protsessual sanksiya ishlab chiqilmagan. Amaldagi doktrina dalilning maqbul emasligini asosan shakliy (protsessual tartibning buzilishi) mezonlarga bog’laydi; “obyektiv bo’lmagan tergov natijasi” degan substansial mezon esa deyarli rivojlantirilmagan. Ushbu holat norma bilan sanksiya o’rtasidagi jiddiy bo’shliq bo’lib, ayblovga moyillikning saqlanib qolishiga sharoit yaratadi.

5. Ilmiy yangilik: ayblovga moyillikka qarshi protsessual mexanizmlar tizimi

Yuqoridagi kognitiv, qiyosiy-huquqiy va institutsional tahlil asosida ayblovga moyillikni bartaraf etuvchi yetti tarkibli protsessual mexanizmlar tizimi taklif etiladi. Tizimning mantig’i shundaki, har bir mexanizm moyillikning ma’lum bir bosqichi yoki turiga qaratilgan.

5.1. Obyektivlik majburiyatining normativlash-tirilishi

Tergovchining ishni har tomonlama, to’liq va xolisona tekshirish majburiyatini JPKning tergovchi vakolatlariga oid moddasida alohida va aniq mustahkamlash zarur. Bu kontinental modelga mos dastlabki qadam bo’lib, qolgan mexanizmlarning normativ asosini yaratadi. Ammo kognitiv tahlil ko’rsatganidek, deklarativ normaning o’zi moyillikni bartaraf etmaydi; uni ta’minlovchi strukturaviy vositalar talab qilinadi.

1.2 . Muqobil versiyalarni majburiy hujjatlash-tirish

Tergovchi ish bo’yicha har bir asosli muqobil (oqlovchi) versiyani hamda uni rad etish sabablarini bayonnomada qayd etishi shart bo’lgan institutni joriy etish taklif etiladi. Ushbu mexanizm “raqobatlashuvchi gipotezalarni tahlil qilish” (ACH) va “tanqidiy ko’rib chiqish” usullariga asoslanib, “tonnel ko’rish” effektini strukturaviy tarzda cheklaydi: tergovchi faqat ayblov versiyasini emas, balki muqobillarni ham rasman ko’rib chiqishga majbur bo’ladi (Maegherman et al., 2021; Salet & Terpstra, 2014).

1.3 . “Mutanosib maqbul emaslik” doktrinas

Tergovchining obyektivlik majburiyatini qasddan yoki qo’pol bee’tiborlik bilan buzishi natijasida olingan dalilni sudning “mutanosiblik testi” (buzilishning og’irligi va uning dalil ishonchligiga ta’siri nisbati) asosida maqbul emas deb topish vakolatini kiritish zarur. Mazkur doktrina anglo-sakson istisno qoidasi (*exclusionary rule*)ning moslashtirilgan – avtomatik emas, balki mutanosib varianti bo’lib, amaldagi shakliy maqbul emaslik doktrinasini substansial (epistemik) mezon bilan to’ldiradi.

5.4. Tergovchining “protsessual mustasno fikri” (*reasoned dissent*)

Tergovchiga prokuror yoki rahbar ko’rsatmasiga asosli norozilik bildirish va uni yozma shaklda ishga ilova qilish huquqini berish, shu bilan birga, bunday norozilik keyinchalik uning shaxsiy javobgarligini istisno etuvchi omil bo’lishini qonunda belgilash taklif etiladi. Bu mexanizm tergovchining real protsessual mustaqilligini kuchaytiradi, ayni paytda institutsional boshqaruvchanlikni buzmaydi.

5.5. Tergov sudyasining “obyektivlik nazorati” funksiyasi

Tergov sudyasiga ayblov xulosasi tayyorlanishidan oldin himoya tarafining murojaati asosida tergovchi tomonidan rad etilgan oqlovchi versiya bo’yicha majburiy bayonot so’rash hamda zarur holda qo’shimcha tergov harakatini o’tkazishni taklif qilish vakolatini berish lozim. Ushbu funksiya anglo-sakson “Brady” majburiyatining sudyaviy vosita orqali amalga oshiriladigan ko’rinishidir.

5.6. Xususiy ajrimlarning “institutsional xotira” tizimiga integratsiyasi

Sud tomonidan chiqarilgan xususiy ajrimlarni tergovchining yillik attestatsiyasi va malaka

oshirish dasturlariga majburiy ravishda kiritish, shuningdek, ularning statistikasini (shaxslarni aniqlamasdan) ilmiy-institutsional tahlil uchun ochiq bazaga aylantirish taklif etiladi. Bu mexanizm sud aniqlagan xatolarning “institutsional xotira”ga aylanishini va tizimli takrorlanmasligini ta’minlaydi.

5.7. Shaxsiy va institutsional javobgarlikni differentsiatsiya qilish

Aybsiz kishini javobgarlikka tortish uchun Jinoyat kodeksi (230-modda) doirasidagi jinoiy javobgarlikdan tashqari, tergovchining qasddan bo’lmagan, biroq tizimli (masalan, statistik bosim ostidagi) obyektivlikni buzishi uchun kompensatsion-intizomiy institut joriy etish zarur. Bunda davlat jabrlanuvchiga zararni qoplaydi, tergovchiga esa qasd yoki qo’pol bee’tiborlik isbotlanmasa, faqat intizomiy chora qo’llanadi. Bu yondashuv javobgarlikni adolatli va mutanosib tarzda taqsimlaydi.

6. Ilmiy yangilikni qo’llash va empirik asoslash metodologiyasi

Yuqoridagi mexanizmlarni ilmiy yangilik sifatida asoslash uchun ularni empirik ma’lumotlar bilan tasdiqlash zarur. Bu borada uch bosqichli metodologiya taklif etiladi.

Birinchidan, oqlov hukmlarini instansiyalar kesimida tizimli tergov xatolari bilan korrelyatsiyalash: har bir oqlov sababini (dalil yetishmasligi, dalilning maqbul emasligi, huquqiy baholash xatosi) kodlashtirib, birinchi instansiyadan kassatsiyaga tomon dinamikani kuzatish. Agar yuqori instansiyalarda oqlov keskin oshsa, bu dastlabki bosqichdagi tizimli *tunnel vision*’dan dalolat beradi.

Ikkinchidan, xususiy ajrimlarni sifat tahlil to’ri (*qualitative grid*) bo’yicha – buzilish turi, tergov bosqichi, aniqlangan instansiya va tergovchiga nisbatan oqibat parametrlari orqali – kodlashtirish; bu 5.6-mexanizm (institutsional xotira)ning empirik asosini beradi.

Uchinchidan, tergovchilar, prokurorlar, sudyalalar va olimlar o’rtasida so’rov o’tkazib, har bir taklif etilayotgan mexanizm bo’yicha respondentlar munosabatini miqdoriy o’lchash va natijalar asosida ilmiy yangilikni asoslashda foydalanish.

Mazkur kompleks yondashuv asosida tadqiqotning ilmiy yangiligini himoya qilinadigan ushbu qoidalar tashkil etadi:

1) ayblovga moyillikning kognitiv (*tunnel vision, confirmation bias*), institutsional va normativ-strukturaviy turlarga ajratilgan kompleks tasnifi ilk bor milliy doktrinaga tatbiq etildi;

2) obyektivlik prinsipi nafaqat normativ, balki kognitiv va institutsional dizayn masalasi ekani, shu bois deklarativ norma yetarli emasligi asoslandi;

3) ayblovga moyillikka qarshi yetti tarkibli protsessual mexanizmlar tizimi (obyektivlikni normativlashtirish, muqobil versiyalarni hujjatlashtirish, mutanosib maqbul emaslik, protsessual mustasno fikr, tergov sudyasining obyektivlik nazorati, institutsional xotira va javobgarlik differentsiatsiyasi) ishlab chiqildi;

4) “mutanosib maqbul emaslik” va “protsessual mustasno fikr” institutlari O’zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksi uchun yangi huquqiy kategoriya sifatida taklif etildi;

5) ilmiy yangilikni empirik asoslashning uch bosqichli (oqlov korrelyatsiyasi, xususiy ajrimlar tahlili, respondentlar so’rovi) metodologiyasi taklif etildi.

Ushbu natijalar tergovchining protsessual maqomini takomillashtirishning zamonaviy, empirik asoslangan va xalqaro tajribaga mos yo’nalishini tashkil etadi.

Xulosa

Tadqiqot tergovda ayblovga moyillik sof normativ yoki subyektiv-axloqiy hodisa emasligini, balki kognitiv, institutsional va normativ-strukturaviy omillarning o’zaro ta’siridan kelib chiqadigan tizimli muammo ekanini ko’rsatdi. Kognitiv-psixologik tadqiqotlar (*tunnel vision* va *confirmation bias* nazariyalari) ayblovga moyillik inson tafakkurining tabiiy xususiyati bilan bog’liqligini, institutsional tahlil esa uni statistik ko’rsatkichlar bosimi va iyerarxik tobelik kuchaytirishini aniqladi. Shu bois obyektivlik prinsipini ta’minlash uchun deklarativ normaning o’zi yetarli emas: tergovchining qaror qabul qilish jarayonini strukturaviy tarzda cheklovchi protsessual mexanizmlar zarur.

Qiyosiy-huquqiy tahlil ayblovga moyillikka qarshi uchta model – kontinental (obyektivlik majburiyati), anglo-sakson (*Brady* doktrinasi va dalillarni istisno qilish) hamda postsovet (funksiyalarni ajratish va sud nazorati) – mavjudligini ko’rsatdi. Ularning hech biri alohida yetarli

emas; eng samarali yechim obyektivlik majburiyati, sud nazorati va protsessual sanksiyani uyg'unlashtirishdir. Ushbu sintez O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning metodologik asosi bo'la oladi.

Muammoning dolzarbligi rasmiy sud statistikasi bilan ham tasdiqlanadi: oqlov hukmlarining nihoyatda kamligi va ayni paytda dastlabki tergovda asossiz qo'yilgan ayblov moddalarining sudda ommaviy tarzda chiqarib tashlanishi bir vaqtning o'zida sud tizimining tuzatuvchi rolini hamda ayblovga moyillikning dastlabki tergov bosqichidagi tizimli xarakterini ochib beradi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, unda ayblovga moyillik milliy doktrinada ilk bor kognitiv-institutsional hodisa sifatida tahlil qilindi va bu yondashuv milliy (S. Mamadiyev, Y. Rahimov, G. To'laganova) hamda xorijiy doktrina bilan uzviy bog'landi. Ishning amaliy ahamiyati ayblovga moyillikni bartaraf etuvchi yetti tarkibli protsessual mexanizmlar tizimida ifodalanadi; ularning ikkitasi – “mutanosib maqbul emaslik” va “protsessual mustasno fikr” – O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligi uchun yangi huquqiy kategoriyadir. Ilgari surilgan takliflarni aniq normativ yechimlarga aylantirish va ularni empirik asoslash kelgusi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishini belgilaydi.

REFERENCES

- Bazarbaeva, T. R. (2022). *Realizatsiya printsipa sostyazatelnosti i ravnopraviya storon v dosudebnoy stadii ugolovnogo protsessa* [Implementation of the principle of adversarial proceedings and equality of the parties at the pre-trial stage of criminal proceedings] (Master's thesis in law). Academy of Law Enforcement Agencies under the Prosecutor General's Office of the Republic of Kazakhstan.
- Elaad, E. (2022). Tunnel vision and confirmation bias among police investigators and laypeople in hypothetical criminal contexts. *SAGE Open*, 12(2). <https://doi.org/10.1177/21582440221095022>
- Lidén, M. (2023). *Confirmation bias in criminal cases*. Oxford University Press.
- Maegherman, E., Ask, K., Horselenberg, R., & van Koppen, P. J. (2021). Test of the analysis of competing hypotheses in legal decision-making. *Applied Cognitive Psychology*, 35(1), 282–289. <https://doi.org/10.1002/acp.3738>
- Mamadiyev, S. N. (2009). Jinoyat ishini sudga qadar yuritishda shikoyat berish muddatlari [Time limits for filing complaints in pre-trial criminal proceedings]. *Uzbek Law Review*, (1–2), 50–53.
- Po'latov, B. Kh. (2003). *Prokurorning jinoyat ishlarini sudda ko'rishda ishtiroki muammolari* [Problems of the prosecutor's participation in the consideration of criminal cases in court] (Abstract of a doctoral dissertation). Tashkent.
- President of the Republic of Uzbekistan. (2026, February 16). *On additional measures to consistently continue reforms and bring them to a new stage within the framework of priority directions of the country's development until 2030 (Decree No. DP-21)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/8050769>
- Rahimov, Y. (2000). *O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi asosida so'roq qilish va ko'rsatuvlarga baho berishning protsessual-psixologik muammolari* [Procedural and psychological problems of interrogation and evaluation of testimony based on the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan] (Abstract of a doctoral dissertation). Tashkent.
- Rassin, E., Eerland, A., & Kuijpers, I. (2010). Let's find the evidence: An analogue study of confirmation bias in criminal investigations. *Journal of Investigative Psychology and Offender Profiling*, 7(3), 231–246.
- Republic of Kazakhstan. (2014, July 4). *Criminal Procedure Code of the Republic of Kazakhstan*. Adilet.zan.kz.
- Republic of Uzbekistan. (1994, September 22). *Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-111460>
- Rossmo, D. K., & Pollock, J. M. (2019). Confirmation bias and other systemic causes of wrongful convictions: A sentinel events perspective. *Northeastern University Law Review*, 11(2), 790–835.
- Ryabinina, T. K. (2010). *Sudebnyy sledovatel – institut proshlogo ili nadezhda na budushchee?* [Investigating judge – an institution of the past or hope for the future?]. In *Ugolovnaya yustitsiya: Svyaz vremen* [Criminal justice: Connecting the times] (Proceedings of the International Association for the Promotion of Justice).

Salet, R., & Terpstra, J. (2014). Critical review in criminal investigation: Evaluation of a measure to prevent tunnel vision. *Policing: A Journal of Policy and Practice*, 8(1), 43–50. <https://doi.org/10.1093/police/pat039>

Schünemann, B., & Bandilla, W. (1989). *Perseverance in courtroom decisions*. In H. Wegener, F. Lösel, & J. Haisch (Eds.), *Criminal behavior and the justice system: Psychological perspectives* (pp. 181–192). Springer.

Singelstein, T. (2016). Confirmation Bias — Die Bestätigungsneigung als kognitive Verzerrung bei polizeilichen Ermittlungen im Strafverfahren. *Criminal Defense Attorney*, 36, 830–836.

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2026). *2025-yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar faoliyati yakunlari to'g'risida* [On the results of the activities of criminal courts in 2025]. Press Service of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan.

Tulaganova, G. Z. (2006). Dastlabki tergovda tortishuv [Adversarial proceedings in the preliminary investigation]. *Lawyer*, (4).

Zhamborov, M. S. (2013). Konstitutsionnyy printsip sostyazatelnosti kak sposob argumentirovannogo obosnovaniya prinyatiya pozitsii storony v rossiyskom sudoproizvodstve [The constitutional principle of adversarial proceedings as a method of reasoned justification for adopting a party's position in Russian judicial proceedings]. *Aktualnye problemy rossiyskogo prava*, (4), 424–432.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 4-SON

VOLUME 6 / ISSUE 4 / 2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.4>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence>